



ONA TILI O'QITISH METODIKASINING TAMOYILLARI

Tuxtayeva Farida

ona tili va adabiyot

Annotatsiya: Bu maqolamda ona tilini o'rgatish, ularni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish vazifasidan kelib chiqib, bilish nazariyasiga asoslanib, barcha yaqin, o'zaro bog'liq fanlar tavsiyalariga asoslanib, ona tili o'qitish metodikasi . Til materiali , . Til ma'nolarini ,Ona tili o'qitish tamoyillari, Tilga sezgirlikni o'stirish tamoyili, Nutqning ifodaliligiga baho berish tamoyili, Og'zaki nutqni yozma nutqdan oldin o'zlashtirish tamoyili , tamoyillari haqida batafsil ma'lumotlar bayon qilingan,qolaversa , , Nazariy tekshirish metodlari, Empirik metod, Eksperimental tekshirish metodlari haqida ham batafsil ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Ona tili, Til materiali, nutq organlari, nutq malakalari, tamoyil, umumdidaktik, , til qonuniyatlar, leksik, grammatik, morfemik, sintaktik, , fonetik ko'nikma, metodika.

O'quvchilarga ona tilini o'rgatish, ularni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish vazifasidan kelib chiqib, bilish nazariyasiga asoslanib, barcha yaqin, o'zaro bog'liq fanlar tavsiyalariga asoslanib, ona tili o'qitish metodikasi o'z tamoyillarini ishlab chiqadi. Bu tamoyillar umumdidaktik tamoyillardan o'zgacha bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtaсидаги o'quv mehnatining yo'nalishlarini belgilab beradi.

Ona tili o'qitish tamoyillari quyidagilar.

1. Til materialiga, nutq organlarining o'sishiga, nutq malakalarining to'g'ri rivojlanishiga e'tibor berish tamoyili. Nutq, til qonuniyatlariga, oz bo'lsada, e'tibor bermaslik amaliy nutq faoliyatini egallashga salbiy ta 'sir ko'rsatadi. Masalan, fonetik ko'nikmalarga yetarli e'tibor berilmasa, imloviy savodxonlikka putur yetadi. Bu ta'lim tamoyili tildan olib boriladigan mashg'ulotlarda eshituv va ko'ruv ko'rsatmalilagini ta 'minlashni va nutq organlarini mashq qildirishni (gapirib berish, ifodali o'qishni, ichida gapirishni) talab etadi.

2. Til ma'nolarini (leksik, gram m atik, morfemik, sintaktik m a'nolarini) tushunish tamoyili. So'zni, m orfemani, so'z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi m a'lum voqeа-hodisalar o'rtaԀаги bog'lanishni aniqlash demakdir. Til m a'nolarini tushunish tamoyiliga amal qilishning sharti tilning ham m a tom onlarini, tilga oid barcha fanlar (grammatika, leksika, fonetika, orfografiya, uslubiyat)ni o'zaro bog'langan holda o'rganish hisoblanadi. Masalan, morfologiyanı sintaksisiga tayangan holdagina o'rganish, o'zlashtirish mumkin. Sintaksisni o'rganishda esa morfologiya suyaniladi, orfografiya fonetika, grammatika, so'z yasalishiga suyanadi va hokazo. So'zni morfemik tahlil qilish uning m a'nosini tushunishga yordam beradi. Tilning ham





m a tomonlari birbiri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, o'qitishda buni albatta hisobga olish kerak.

3. Tilga sezgirlikni o'stirish tamoyili. Til — juda murakkab hodisa, uning tuzilishini, izchil tizimini fahmlab olmay turib, sal bo'lsa-da, uning qonuniyatlarini, o'xshashliklarini o'zlashtirm ay turib, uni yodda saqlab bo'lmaydi. Bola gaplashish, o'qish, eshitish bilan til materiallarini yig'adi, uning qonunlarini o'zlashtiradi. Natijada kishida tilga sezgirlik (til hodisalarini tushunish) xususiyati shakllanadi.

4. Nutqning ifodaliligiga baho berish tamoyili. Bu tamoyil til hodisalarini tushunm ay turib savodli yozish, nutq madaniyati vositalarining xabar berish vazifasini tushunish bilan bir qatorda, uning ifodaliligini (uslubga oid) tushunishni, m azm uninigina emas, balki so'z va nutq birliklarining, tilning boshqa badiiy-tasviriy vositalarining hissiy bo'yoqdorligini ham tushunishni ko'zda tutadi. Bu tamoyilga amal qilish uchun, birinchi navbatda, badiiy adabiyotlardan, shuningdek, tilning uslubiy xususiyatlari aniq ifodalangan boshqa matnlardan foydalanish talab etiladi. Bu esa m atn m azm uni va uning o'ziga xos „noziklik“larini ham anglab yetishga yordam beradi.

5. Og'zaki nutqni yozma nutqdan oldin o'zlashtirish tamoyili. Bu tamoyil ham kishi nutqining rivojlanishiga ta 'sir etadi va til o'qitish metodikasini tuzishda xizmat qiladi. Metodika tamoyillari, didaktika tamoyillari kabi, o'qituvchi bilan o'quvchining maqsadga muvofiq faoliyatini belgilashga, ularning birgalikdagi ishlarida qulay yo'nalishni tanlashga yordam beradi, metodikaning fan sifatida nazariy asoslash elem entlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Amaliy fanlar uchun amaliyot muhim rol o'ynaydi. Ona tili o'qitish metodikasi ham amaliy fanlar sirasiga kiradi. Har qanday amaliy xulosalar ishonarli bo'lishi, yuqori ilmiy darajada, ya'ni puxta va asosli bo'lishi lozim. Metodika tavsiyalarining ilmiy darajasi, nazariy tasdiqlanishi yuqori saviyada bo'lishi tekshirish metodlarining puxtaligiga ham bog'liq.

Tekshirish metodlari 2 xil:

1. Nazariy tekshirish metodlari. U quyidagi hollarda tatbiq etiladi: a) biror hodisaning m etodik asosini, unga bog'liq boshqa fanlarni o'rganish, qo'yilgan gipotezani asoslash, izlanishning asosiy yo'nalishini belgilashda; b) masala tarixi, xorijiy m aktab tajribalari va mavzuga doir adabiyotlarni o'rganish, tajribani tahlil qilish, m asalaning isbotlanmagan va hal qilinm agan o 'rinlarini aniqlash, ilgarigi tajriba bilan hozirgi ahvolni taqqoslash, hozirgi kun talabi bilan baholashda; d) bir-biriga yaqin fanlar (psixologiya, lingvistika, sotsiologiya) ning tekshirish metodlarini, olimlarning tekshirish ishlari tajribasini o'rganish, qulay metodlarni tanlash, o'zining yangi eksperimental metodikasini yaratish, materiallarni tayyorlash maqsadida; e) empirik tajriba yo'li bilan olingan materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish, o'qituvchilarining ish tajribasini o'rganish, eksperim ent natijasini tahlil qilish, amaliy tavsiyanomalarini shakllantirishda.

2. Empirik metod (tajribaga asoslangan metod). Bu metod quyidagi maqsadlarda qo'llanadi: a) bu m etod o'qituvchilarining ish tajribasini o'rganish, yangiliklarini tanlash, umumlashtirish, baholash va ommalashtirish, o'qituvchi va o'quvchilar



faoliyatining darajasini aniqlash; b) o'quvchilarni o'qitish jarayonini maqsadga muvofiq kuzatish (gars, uning biror qismini, o'quvchilam ing javobi, hikoyasini, yozma ishini tekshirish), o'qituvchi va o'quvchilam ing faoliyatini so'rovnoma a orqali tekshirish; d) eksperiment (tajriba) m etodidan foydalanish.

Hozirgi kunda keng tarqalgan bu usulda deduktiv yo'lidan boriladi, ya'ni gipoteza qo'yiladi, mavzuga asosan eksperiment uchun material (o'quv materiali) tayyorlanadi. Eksperiment bir necha marta takrorlanadi, bir necha sinf va bir necha guruhlarda o'tkaziladi. Eksperimentda 2 ta sinf tanlanadi. Biri tajriba sinfi, ikkinchisi taqqoslash uchun tanlan-gan tekshiruv sinfi. Tajriba sinfida yangi m etod, yangi darslik, yangi ishlanmadan foydalanilsa, tekshiruv sinfida amaldagi m etod, darslik, ishlanmadan foydalaniladi. Ikkinci marta sinflar almashtiriladi, bu chaprost deb nom lanadi. Har ikki holda ham natija yuqori bo'lsa, demak, ish usuli foydali sanaladi. Eksperimental tekshirish o'z maqsadining kengligi bilan farqlanadi: ayrim m etodik usullami tekshirishda ommaviylik talab qilinmaydi, am m o yangi dastur, yangi darsliklarni tekshirishga butun tum an, viloyat jalb qilinadi. Eksperiment vazifasiga ko'ra quyidagi hollarda o'tkaziladi:

- 1) yangi metod, yangi darslikning muvofiqligini tekshirishda;
- 2) metod yoki qo'llanmaning qay darajada foydalilagini tekshirishda;
- 3) metod yoki qo'llanm aning muvofiqligini va samaradorligini aniqlashda.

Eksperiment natijasini chiqarishda belgilangan baho m e'yoriga amal qilinadi. Bunday m e'yor aniq, barcha holatlar uchun ham bir xil bo'lishi lozim. Ona tili metodikasida yozma ishlarda yo'l qo'yilgan xatolar soni va xarakteri, m a'lum bir vaqtida o'qilgan yoki yozilgan so'zlar soni, og'zaki hikoya va yozma inshoning hajmi va izchilligi me'yordan foydalaniladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi o'z predmeti va vazifalariga mos ravishda empirik tekshirish metodidan quyidagi ishlarda ham foydalanadi:

1.Ilg'or o'qituvchilar ish tajribasini um um lashtirishda. Buning uchun ilg'or o'qituvchilarning ish-tajribalari o'rganiladi, tahlil qilinadi, eng foydali jihatlari aniqlanadi va umumlashtiriladi. Bu metodika fani nazariy xulosalarining to'g'rilingini tekshirishda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi, bu fanni yangiliklar bilan boyitib boradi.

2. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi sohasidagi meros va yangiliklarni o'rganishda.

3. T a'lim berishning u yoki bu usullari va vositalarining foydali ekanini tekshirishda.

4. Ona tilidan o'quvchilam ing o'qishlari, yozushi, mustaqil va ijodiy ishlari ustidan kuzatish olib borishda.

5. O'quvchilar ijodiy faoliyatining natijalarini og'zaki qayta hikoyalash, yozma ish kabi usullar yordamida tahlil qilishda.

Yuqoridagi tekshirish metodlari ushbu fanning davr talabidan kelib chiqib rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish



tarixidan o'zbek xalqi juda qadim zamonlardayoq ilm-fanga katta e'tibor bilan qaragan va uni rivojlantirishga harakat qilgan. Ibn Sino, Beruniy, al-Xorazmiy, Amir Temur, Ulugbek va boshqa ko'plab allomalar ilm -fanni dunyoga tanitganlar. Ilm -ma'rifatga beqiyos hurm at bilan qaragan xalqimiz qanday qiyinchilik va to'siqlar bo'lm asin, o'z farzandlarining savodli bo'lishini orzu qilganlar, ularini yoshligidanoq maktabga o'qishga bergenlar.

Demak, O'zbekistonda o'qitishning o'ziga xos usullari mavjud bo'lgan va ular rivojlanib borgan. Bu jarayon silliq kechmagan, ba'zi xato va kamchiliklarga ham yo'l qo'yilgan. Grammatik, orfografik materiallarni izchil o'rgatishga, o'quvchilarning har tomonlam a savodli bo'lib, madaniy nutqni egallashlariga katta ahamiyat berila boshlandi. O'quvchilar va o'qituvchining o'quv mehnatini tashkil etishning asosiy shakli bo'lgan dars metodikasi muvaffaqiyatli ishlana boshlandi. Bu o'rinda ona tiliga katta vazifa yuklatildi:

Ona tili ta'limiga o'quv fani sifatidagina emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta 'lim jarayoni sifatida qaraldi. Ona tili bo'yicha minimal talablar uch parametrli standart o'lchovi orqali aks ettirildi: o'qish texnikasi, o'zgalar fikrini va matn mazm unini anglash, fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi. Bu talablarni amalda bajarish ta 'lim jarayoniga yangicha o'qitish texnologiyalarini tatbiq etishni taqozo qiladi.

Hozirda o'quvchilarga bilim berish, bilimlarni oshirishda mustaqil ishlarni uyushtirish, bilimlarni hisobga olish kabi m etodik tavsiyalar tizimi ishlab chiqilm oqda, texnik vositalardan unumli foydalanish, grammatik ta 'limiy o'yinlarni joriy etish keng tus olmoqda, ta 'lim jarayonida test topshiriqlaridan, turli boshqotirm a va jadvallardan keng foydalangan holda mashg'ulotlar uyushtirilmoqda. Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, ona tili o'quv fani sifatida shakllanib, rivojlanish ning murakkab yo'lini bosib o'tmoqda va biz pedagoglar ona tilimizni rivojlanishiga o'z hissamizni qo'shib kelmoqdamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umumiy o'rtta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi (Boshlang'ich ta'lim).- Toshkent, 2017.
2. Roziqov O. va boshqalar. Ona tili didaktikasi. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2005.
3. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009.

